



UO‘K: 81-133

NUTQDA NOVERBAL VOSITALAR: KOMMUNIKATIV VA PRAGMATIK TAHLIL**НЕВЕРБАЛЬНЫЕ СРЕДСТВА РЕЧИ: КОММУНИКАТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ****NONVERBAL MEANS IN SPEECH: COMMUNICATIVE AND PRAGMATIC ANALYSIS****Eshqurbonova Aziza Bozor qizi** Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**Annotatsiya**

Maqolada nutqda qo‘llaniladigan noverbal vositalarning kommunikativ va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Noverbal vositalarning mazmun yaratish, nutqni kuchaytirish va muloqot ishoralarini aniqlashtirishdagi vazifalari tahlil qilingan. Muloqot jarayonida noverbal vositalar yordamida so‘zlovchi tinglovchining o‘zini tinglayotganligini yoki tushunayotganligini va so‘zlari unga qanday ta‘sir qilayotganligini aniqlashi, tinglovchi o‘zining harakatlari orqali so‘zlovchining gaplarini tinglayotganligini yoki tinglamayotganligini, tushunayotgan yoki tushunmayotganligini, uning fikrlari ahamiyatli yoki ahamiyatsiz ekanligini bildirishi mumkin. Shuningdek, noverbal vositalarning lingvopragmatik talqini orqali muloqotning samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar aniqlanadi. Maqola noverbal muloqotning tilshunoslikdagi ahamiyatini ilmiy yondashuv asosida asoslaydi.

Аннотация

В статье анализируются коммуникативные и прагматические свойства невербальных средств, используемых в речи. Анализируются функции невербальных средств в создании содержания, усилении речи и уточнении коммуникативных жестов. В процессе коммуникации, используя невербальные средства, говорящий может определить, слушает ли его слушающий или понимает его, и как его слова воздействуют на него, а слушающий может указать своими действиями, слушает ли он говорящего или нет, понимает он или нет, важны или не важны его мысли. Также посредством лингвопрагматической интерпретации невербальных средств выявляются факторы, влияющие на эффективность коммуникации. В статье на основе научного подхода обосновывается значение невербальной коммуникации в лингвистике.

Abstract

The article analyzes the communicative and pragmatic properties of nonverbal means used in speech. The functions of nonverbal means in creating content, enhancing speech, and clarifying communicative gestures are analyzed. In the process of communication, using nonverbal means, the speaker can determine whether the listener is listening to him or understanding him and how his words affect him, and the listener can indicate through his actions whether he is listening to the speaker or not, whether he understands or not, and whether his thoughts are important or insignificant. Also, through the linguopragmatic interpretation of nonverbal means, factors affecting the effectiveness of communication are identified. The article substantiates the importance of nonverbal communication in linguistics on the basis of a scientific approach.

Kalit so‘zlar: nutqiy muloqot, eydetik vositalar, so‘zlovchi, tinglovchi, fonatsion noverbal vositalar, dialog, lingvopragmatika.

Ключевые слова: речевое общение, эйдетические средства, говорящий, слушающий, фонационные невербальные средства, диалог, лингвопрагматика.

Key words: speech communication, eidetic means, speaker, listener, phonational nonverbal means, dialogue, linguopragmatics.

KIRISH

Insoniy muloqotda ma‘noni tushunish eng asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Ma‘no nafaqat so‘zda, balki harakatlarda, mimikalarda, imo-ishoralarda ham mavjud bo‘ladi. Noverbal vositalar nutqiy muloqot jarayonida nutqqa qorishib, unga emotsional ko‘rinish, ekspressiv jon kiritish uchun xizmat qiladi.[1] Shuningdek, tinglovchi ham ushbu noverbal vositalarni “o‘qiy olishi” kerak. So‘zlovchi tinglovchidagi bu vositalar orqali o‘zini tinglayotganligini yoki tushunayotganligini va so‘zlari unga qanday ta‘sir qilayotganligini aniqlashi, tinglovchi o‘zining harakatlari orqali

so'zlovchining gaplarini tinglayotganligini yoki tinglamayotganligini, tushunayotgan yoki tushunmayotganligini, uning fikrlari ahamiyatli yoki ahamiyatsiz ekanligini bildirishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Qadimgi Rimda notiqlik san'atida imo-ishoralarning ishlatilishiga alohida ahamiyat berilgan. Sitseron ruhning har bir harakati imo-ishora va yuz ifodalari bilan o'ziga xos tabiiy ifodaga ega bo'lishini hamda ular so'zlarning ma'nosiga, ta'sir qilishi, har bir tana harakati – fikrga, har bir fikr – tana harakatiga mos bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi [2] Nutqiy muloqot jarayonida imo-ishoralar alohida rol o'ynaydi. Masalan, diqqat aloqasi – suhbatdoshga qarash, boshni qimirlatish – tushunish yoki tasdiq, bosh barmoqni o'ziga qaratish – o'zini ta'kidlash, hissiy ishora – qizarish kabi noverbal vositalar bilan ifodalanishi mumkin. N.I.Farmonovskaya tinglovchi so'zlovchining unga xayrixoh imo-ishora va mimik signallar yuborayotganligini his qilishi kerakligini, imo-ishoralar yordamida nutqini ritmlashtirishini hamda asosiy fikrini imo-ishoralar bilan ifodalashini ta'kidlaydi [3]. Muloqot jarayonida yuzaga keladigan har bir imo-ishora tabiiy harakatga asoslanadi. Harakatning tabiati uni yuzaga chiqargan sabablarga, u bajaradigan vazifalarga, nutq egasining temperamentiga, yoshiga, ruhiy holatiga hamda uning etnik kelib chiqishiga qarab o'zgaradi. Bu omillarning barchasi harakatning dinamikasi, surati, ritmiga, uning "mantig'i"ga ta'sir qiladi. Barcha imo-ishoralar va harakatlar aniq, mazmunli, izchil va o'z vaqtida bo'lishi, suhbatdoshlarning maqsadiga mos kelishi, ularning ichki dunyosi va holatini aks ettirishi kerak. Demak, "imo-ishora" to'g'ri va o'z vaqtida bajarilishi, qisqa bo'lishi, lekin ... kuchga ega bo'lishi kerak" [4; 24 b.].

Qo'llarni yoyish, yelka qisish, boshni qashish, qoshlarni ko'tarish, peshonani tirishtirish, ko'zlarni olaytirish, yuzning qizarishi yoki oqarishi kabi harakatlar suhbatdoshga ma'lum bir ma'lumotlarni yetkazadi. Agar suhbat davomida suhbatdoshlardan biri qoshini chimirsa yoki g'azabdan rangi oqarib ketsa u o'z xohish-irodasiga qaramasdan, o'z his-tuyg'ularini ifodalaydi, suhbatdosh esa ularni ma'lum bir signal sifatida qabul qiladi:

– *Bilmadim, – dedi Sherzod qovog'ini solib. – Irim-sirimni xotinlar biladi.*

Sirojiddin Sherzodning qo'rs javobidan ranjidi shekilli, jiddiy tortdi.

– *Boboyning o'rtoqlarini poyezdga chiqarib yubordim, – dedi qoshini chimirib.*

Sherzod negadir gortorg mudirini esladi.

– *Anavi novcha kishinimi?*

– *Boshqa! – Sirojiddin qo'l siltadi. – Boboyning nimasi ko'p – o'rtog'i ko'p. Bunisi direktor.*

(O'.Hoshimov. "Nur borki, soya bor").

Ushbu dialog matnida qo'llangan qovog'ini solmoq, qoshini chimirmoq, qo'l siltamoq kabi noverbal vositalar har ikkala suhbatdoshning suhbatni davom ettirish niyati yo'qligini bildiradi. Qosh chimirish va qovog'ini solish nutqiy muloqotda norozilik kayfiyatini, qo'l siltamoq beparvolik va "ahamiyatsiz" kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Noverbal vositalarning nutqiy muloqotdagi ishtiroki va vazifasi yuzasidan tilshunos olimlar tomonidan turli qarashlar mavjud. Xususan, o'zbeklarda aloqa-aralashuvda noverbal vositalarning ishlatilishi xususida M.Saidxonov quyidagilarni bayon qiladi:

a) aloqa-aralashuvda ishtirok etayotgan tomonlarning aloqa tillari bir-birlariga tushunarsiz bo'lsa;

b) aloqa-aralashuv jarayonining yuzaga chiqishi uchun to'sqinlik holati bo'lganda;

d) aloqa-aralashuvning bevosita ishtirokchilari o'zaro fikr almashish jarayonida fikrni boshqalarga sezdirmaslik uchun;

e) aloqa-aralashuvda qatnashayotgan tomonlardan birining o'z fikrini nutqiy bayon qilishga subyektiv holati (betobligi, gapirish imkoniyati yo'qligi, suhbatdoshini mensimasligi va boshqa holatlar) bo'lmasligi;

f) nutqning ishonarli, ta'sirchan, bo'yoqdor bo'lishini ta'minlashda ishlatilishi mumkin [5; 92b.]

Nutqda noverbal vositalarning kommunikativ va pragmatik tahliliga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning tilshunoslik sohasida qo'llaniladigan chog'ishtirma tahlil, analiz va sintez kabi metodlaridan samarali foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Imo-ishoralar oddiy (bitta harakatdan iborat), qo'shma (bir nechta bir xil harakatlardan) bo'lishi mumkin. Ba'zi imo-ishoralar polisemantikdir (salomlashish, xayrlashish, tanishish,

ILMIY AXBOROT

tabriklash uchun qo'l siqish); ba'zilarida omonim (boshini qimirlatish – attang ma'nosida yoki yo'q ma'nosida); antonimik (qo'l silkitish – salomlashishda, xayrlashishda); sinonim (yelka qisish – inkor, boshni gorizontalar harakatlantirish – inkor) va uslubiy (do'stona, rasmiy, tantanali, xushchaqchaq va hokazo) xarakterda bo'lishi mumkin. Adresant so'zlari bilan imo-ishoralar zid bo'lsa, adresat so'zlardan ko'ra ko'proq imo-ishoralarga ishonadi, chunki bir harakat ifodalanayotgan so'zning yolg'onligini bildirishi mumkin. Bu esa imo-ishoralarning so'zlardan kuchliroq ta'sirga egaligini bildiradi.

– *Ovqatingdan qolmadimi? – dedi u cho'kkalab o'tirgan cha choy quyayotgan xotiniga qarab.*

Xadichaning uzunchoq, sarg'ish yuzi qizardi. Aybdordek mahzun tovushda uzr so'radi.

– *Qolmovdi-ya.*

Shoikrom uning qizarganidan yolg'on gapirayotganini sezdi. Kim bilsin, ertalab o'ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir... (O'.Hoshimov. "Urushning so'nggi qurboni".)

Odamlar ko'pincha yuz ifodalari va nigohlar yordamida yashirin his-tuyg'ularini, o'ylarini ifoda etadilar. Suhbatdoshlardagi eng kichik o'zgarishlar ham ularning yuz-ifodalari, ko'zlarida ifodalanadi.

– *Mana bularga diqqat bilan qarang. Shoshilmang. Birontasi uyingizga kelganmi?*

Ayol sinchiklab qarab, bosh chayqadi.

– *Yaxshilab eslang. Balki birontasi uch kun oldin kelib eringizga uchrashgandir?*

– *Kelsa bilardim. Adasiga uchrashishlari mumkin emas. Uch kun oldin u kishi Yerevanda edilar. (T. Malik. "Shaytanat", 1-kitob.)*

– *Nasib, bu g'alvalar o'tkinchi. Biz ham odamlarga o'xshab yashaylik-da.*

Nasiba eriga qarab bosh chayqadi.

– *Shu paytgacha odamga o'xshab yashaytuvdik... (T. Malik "Shaytanat", 1-kitob.)*

Har ikkala dialogda bir xil "bosh chayqamoq" noverbal vositasi keltirilgan bo'lib, ular ikki xil ma'noda: birinchi dialogda "yo'q" ma'nosini, ikkinchi dialogda "attang", "achinish" ma'nolarini ifodalash uchun qo'llanilgan.

"Ko'zlar "ruhning ko'z gusi" bo'lib, ko'z orqali mantiqiy asosli fikrni, shu bilan birga, turli his-tuyg'uni ifodalashi mumkin.[6] Insonlar hayotda ko'pincha ko'zlari orqali "tinglashadi". Qadimgi donishmandlar: "Ko'zlar quloqdan xavfsizroqdir" deb ta'kidlashgan. Ko'z bilan bog'liq mimik harakatlar suhbat davomida aloqani saqlab turadi, so'zlovchining hissiy holatini ifodalaydi. Ko'zni lo'q qilish, olaytirish, chaqchaytirish, o'qrayish, ko'zlarni ola-kula qilish salbiy xarakter kasb etadi.

– *Nima deysan? – dedi Asadbek unga o'qrayib.*

– *Shu... roziligimni aytmoqchi edim. (T. Malik. "Shaytanat", 1-kitob.)*

Ko'z qisish – sirlil aloqa uchun, ko'z suzish – e'tiborni tortish; ko'z piri-pirish – qo'rquvni, erkalanishni, ajablanishni; ko'zni olib qochish – uyalish bilan birga nimanidir yashirayotganlik, javdirab qaramoq – ayanchli holatda, pano kutishda, ezilgan kabi ma'nolarini ifodalashi mumkin [2; 19 b.].

Muazzam entikdi, jiqqa yosh to'la ko'zlarini javdiratib qaradi.

– *Ertaga Odiljonning oyog'ini kesishmoqchi. (S. Ahmad. "Rahmat azizlarim".)*

Muloqot paytida aloqani saqlab qolishda tabassum muhim rol o'ynaydi. Tabassum qilish orqali suhbatdoshlar bir-biriga nisbatan xushmuomalalik, rozilik ma'nolarini ifodalaydi. Tanishga ham, notanishga ham tabassum bilan murojaat qilishi mumkin. Odatda tabassum suhbatdoshni qo'llab-quvvatlash, xayrixohlik, minnatdorlik ma'nolarini bildirib keladi.

Yana avtobus ostanovkasida to'xtadik. Muazzam chiroyli bir tabassum bilan qo'l berib xayrlashdi.

– *Rahmat! (S. Ahmad. "Rahmat azizlarim".)*

Bundan tashqari tabassum kinoyani, alamni, g'amni ham ifodalashi mumkin:

Hikmatilloning lablariga alamli tabassum yugurdi.

– *To'qson so'mga alam qilyapgani yo'q, ayajon. Yo'l kirasiz qoldim, shunga hayronman.*

– *Ha-ya! – dedi kampir. – Boshqa puling yo'qmi? (O. Yoqubov. "Billur qandillar".)*

Yuz fikr ifodalashda faol o'ringa ega. U noverbal muloqotning eng samarali vositasi bo'lib, u og'zaki bo'lmagan ajoyib "yolg'onchi"dir. Bunga sabab esa, insonlarning muloqot vaqtidagi his-tuyg'ularini ifodalashda yuzda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni yashira olmasligida. Qizarish,

bo'zarish, gezarish, qovoq solmoq, yuzni burish, o'girish, burushtirish, oqarish kabi yuz orqali xursandchilik va xafalikni ifodalash bilan bog'liq mimikalar mavjud. "Odatda kishilar achchiq yoki taxir narsa iste'mol qilishganda beixtiyor yuzlari burishadi. Bundan tashqari yoqimsiz ish, gap, qiliq, voqea, hodisalardan g'ashi kelishning tashqi belgilarida ham yuz burishadi" [7; 109 b.]

Begimqul yana yuzini burishtirib qo'lini siltadi.

– *Qiziqsan-a, og'ayni! Pulim bo'lsa... men senga tekinga berib yuborardim. Aytyapman-ku, aksiga olib... pulsiz paytimga to'g'ri kelding deb! Tavba, Kap-katta odam! Serjant! Cho'ntagidan pul oldirib o'tirsa-ya...*(O.Yoqubov. "Billur qandillar".)

So'zlovchilar ko'pincha bir paytning o'zida noverbal vositalar orqali ifodalangan mazmuni og'zaki tarzda birgalikda qo'llashi ham mumkin:

– *Ha, ukam, tinchlikmi? – dedi Jalil, fотиha o'qilgach.*

Asadbek asta "ha" deb bosh irg'ab qo'ydi. (T.Malik. "Shaytanat", 1- kitob.)

Bu kabi vositalarni E.M.Vereshagin va V.G.Kostomarovlar "eydetik (yunoncha – tasvir) vosita"lari deb nomlashgan [6; 72 b.]. Ular bitta og'zaki xabarda bir vaqtning o'zida paydo bo'ladi yoki bir-birini almashtirishi mumkin.

Nutqiy muloqotda fonatsion noverbal vositalar ham muhim rol o'ynaydi. Ovozning pasayishi yoki kuchayishi, pauza yoki davomli, yo'g'on yoki ingichka gapirish, so'zlash jarayonidagi ohang yoki tembr xususiyatlari nutqiy muloqot jarayonida ma'lum axborot beruvchi qo'shimcha vositalar sanaladi. Bu kabi noverbal vositalarning ahamiyati nutq jarayonida aniq ko'rinadi. Nutqiy muloqotda, so'zlovchi ma'lum fikrni ifodalashda so'zlashdan tashqari, nutqning intonatsion imkoniyatlari asosida, ovozning toni, nutq tembri, so'zlash tezligi kabilar vositasida nutqiy so'zlashuv jarayonini to'ldirib turadi hamda axborot mazmuniga qo'shimcha pragmatik ma'no yuklashi mumkin. Tilshunos olim A.Nurmonov "Ahmad" so'zini jonli nutqda turlicha talaffuz qilish bilan o'n olti xil mazmun ifodalashi mumkinligini ta'kidlaydi [2; 39 b.]

Badiiy matnlarda fonatsion vositalar muallif so'zlari orqali ifodalanadi:

– *Nima balo, og'izlariga talqon solib oldilarmi? – Begimqulovning ovozi tahdidli yangradi.* (O.Yoqubov. "Billur qandillar".)

M.Saidxonov so'zlovchining o'z fikriga xush yoki noxush kayfiyatda bo'lishi, o'z fikridan xursand yoki nochor ahvolda ekanligi fikr ifodalashda so'zlarni qay holatda talaffuz qilishidan, ovozning ohangidan ma'lum bo'lishini, ma'lum bir axborotni berishdagi bunday vositalar fonatsion noverbal vositalar hisoblanishini ta'kidlaydi [5; 109 b.]

– *Tirikmisiz, aka? – dedi yig'lamsiragan tovush bilan. U entikib nafas olar, ingichka mo'ylovi uchib-uchib turar edi.* (O'.Hoshimov. "Nurli halqachalar".)

Kommunikatorlar o'zaro muloqotga kirishar ekanlar ular ma'lum masofa chizig'ini belgilashadi: agar adresat juda uzoqda bo'lsa, adresant u bilan aloqani yo'qotadi; agar masofa juda qisqa bo'lsa, noqulaylik hissi mavjud bo'ladi. Suhbatdoshlar orasidagi masofa to'rt turga bo'linadi: juda yaqin hudud, shaxsiy hudud (yaqin), ijtimoiy – neytral hudud (uzoqda; odatda notanishlar bilan yoki rasmiy muhitda) va ommaviy hudud (tinglovchilardan munosib masofada gapirish). Bu hududlar har bir millat mentalitetidan kelib chiqqan holda oraliq masofani saqlaydi. Kuzatuvlarimiz natijasida shunga amin bo'ldikki, o'zbek xalqi uchun muloqot vaqtida kommunikatorlar uchun shaxsiy hudud masofasi 50 smdan 1,5 metr gacha bo'lishi odatiy hisoblanadi. Badiiy asar mualliflari o'z asarlarida bu masofalarni ifodalashda yaqin kelib gapirdi, qulog'ining tagida gapirdi kabi jumlar bilan ifodalashadi:

Yaqin kelib salom berdim. Chol boshini ko'tarib salomimga sovuqqina alik oldi-da, ketmonini marzada qoldirib, chetga chiqdi. (Said Ahmad. "Sud".)

XULOSA

Demak, nutqiy muloqotda qo'llaniladigan noverbal vositalarning og'zaki muloqot vositalari bilan hamkorligi va bir-biri bilan muvofiqlashuvi suhbatdoshlarning o'zaro fikr almashinuvi jarayonini, ularning fikrining yanada aniq va ta'sirchan tarzda ifodalanishini ta'minlovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Axmedov B. Paralingvistik vositalarning genderologik va pragmatik tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Andijon, 2021. – 136 b.

2.Nurmonov A. Tanlangan asarlar. III jildlik. I jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 214 b.

ILMIY AXBOROT

3. Rasulov Q. O'zbek muloqot xulqining funksional xoslanishi: Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2008. – 143 b.
4. Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. – Toshkent: Fan, 2008. – 167 b.
5. Saidxonov M. Noverbal vositalar va o'zbek tilida ularning ifodalanishi: Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 1993. – 154b.
6. Верещагин Е. М. Костомаров В. Г. “Язык и культура”. – Москва: Изд. “Индрик”, 2005. – 406 с.
7. Мирианашвили М. Лингвопрагматика диалогической коммуникации. – Тбилиси, 2006. – 169 с.
8. Румнев А. А. О пантомиме. – М., 1964. – 204 с.
9. Формановская Н. И. Речевой этикет и культура общения. – М., Изд. “Икар”, 2002. – 217 с.